

KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

Kredit mahsulotining turi va nomi	Ipoteka krediti - "Yangi uy"
Qarz oluvchi/ Birgalikda qarz oluvchiga qo'yiladigan talablar	O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, 18 yoshga to'lgan va 60 yoshdan oshmagan (60 yosh inobatga olinadi) jismoniy shaxs.
Kredit valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'm
Kredit miqdori	Toshkent shahri uchun 420,0 mln.so'mgacha; Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar uchun 330,0 mln.so'mgacha.
Kredit maqsadi	Aholiga birlamchi uy-joy bozoridagi kvartiralarini sotib olish uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligi mablag'lari hisobidan
Kredit muddati	6 oylik imtiyozli davr bilan, 240 oydan oshmagan muddatgacha
Boshlang'ich to'lov	<u>Rasmiy daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar uchun:</u> Respublika bo'yicha birlamchi uy-joy bozorida sotib olinadigan kvartira qiymatining 15 foizidan (davlat budjetidan to'lab beriladigan subsidiya mablag' mavjud hollarda, subsidiya mablag'ini ham inobatga olganda) kam bo'lmagan miqdordagi mablag'. <u>O'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar uchun:</u> Respublika bo'yicha birlamchi uy-joy bozorida sotib olinadigan kvartira qiymatining 26 foizidan kam bo'lmagan miqdordagi mablag'.
Foiz stavkasi (yillik)	Markaziy bank asosiy stavkasi + 3% O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasi pasaytirilgan taqdirda, mutanosib ravishda kamayadi, oshirilgan taqdirda esa o'zgarishsiz qoladi. Bunda:foiz to'lovlaridagi o'zgarishlar Markaziy bank asosiy stavkasining pasaytirilishi amalga kiritilgan kundan boshlab hisob-kitob qilinadi.
Talab etiladigan hujjatlar	A) Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, va h.k.); B) Pudrat tashkiloti bilan tuzilgan oldi-sotdi shartnomasi; D) Kredit qaytarilishini ta'minlovchi hujjatlar (<i>kredit hisobiga sotib olinadigan uy-joyining kadastr va boshqa zarur hujjatlari</i>); E) Kredit hisobiga sotib olinayotgan ob'ekt joylashgan ko'p qavatli uylar uchun vakolatli organ tomonidan ruxsatnoma mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar (hokimning qarori va boshqalar); F) Sotib olinadigan kvartiraning kadastr reestridan ko'chirma; G) O'zini-o'zi band qilganlik to'g'risidagi guvohnoma. (<i>kredit o'zini-o'zi band qilgan shaxslarga ajratilganda</i>); H) Bankning mas'ul xodimlari tomonidan tuzilgan garovga olinadigan mol-mulkning dastlabki monitoring dalolatnomasi mol-mulkning foto sur'atlari bilan. Qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar bank tomonidan maxsus tarmoqlar orqali elektron shaklda mustaqil ravishda olinadi. Agar qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadlarini aniqlash imkoniyati bo'lmagan taqdirda, o'rtacha oylik daromadlarini va boshqa daromad manbalarini tasdiqlovchi hujjatlar qarz oluvchidan talab qilinishi mumkin.

	J) Qarz oluvchi va birgalikda qarz (mavjud hollarda) oluvchi(lar)ning shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, yashash guvohnomasi va boshqalar).
Kredit ta'minoti	1) Asosiy ta'minot – kredit hisobiga sotib olinadigan ko'p qavatli uydin kvartira; 2) Ushbu sotib olinadigan ko'p qavatli uydin kvartira ta'minot sifatida kredit miqdorining 125% (boshlang'ich badal 15 foiz bo'lgan taqdirda kredit miqdorining 117,5 foiz) dan ko'p bo'lmagan qiymatda qabul qilinadi; Bankka aloqador bo'lgan shaxslarga ajratiladigan kreditlar bo'yicha ta'minot O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan miqdorda qo'shimcha ravishda qabul qilinadi
Kreditni ajratish tartibi	• Qarz oluvchiga kredit ajratish masalasi ma'qullanganidan so'ng kredit ajratib berilishi to'g'risida bank sotuvchiga kafolat xati taqdim etadi; • Bank tomonidan taqdim etilgan kafolat xatiga asosan sotib olinadigan uy-joy qarz oluvchining nomiga notarial tartibda oldi-sotdi shartnoma asosida o'tkaziladi; • Kredit hisobiga sotib olinayotgan uy-joy garov reestri va tegishli tizimlarda yozuvlar qayd qilinib taqiqqa qo'yiladi; • Kredit ob'yektiga garov reestri orqali taqiq qo'yilib bankka taqdim etilganidan so'ng kredit mablag'i sotuvchining hisob raqamiga o'tkazib beriladi; • Ipoteka predmetini yo'qolish va shikastlanish tavakkalchiliklaridan sug'urta qilish talab etilmaydi.
Kreditni qaytarish tartibi	Kredit va hisoblangan foizlarni to'lash kredit shartnomasida belgilangan tartibda va shartlarda annuitet yoki differensial to'lov usulida amalga oshiriladi.
Alohida shartlar	Ushbu shartlar asosida kredit ajratish bo'yicha qaror qilish vakolati Kreditlarni ma'qullash boshqarmasiga Jismoniy shaxslar andarraytingi bo'limiga beriladi. Qarz oluvchi Dastur doirasida ajratiladigan ipoteka kreditlaridan birinchi marotaba foydalanayotgan bo'lishi lozim. Bunda, qarz oluvchi tomonidan 2024 yil 1 mayga qadar olingan kreditlar hisobga olinmaydi.